

BOSHLANG'ICH TA'LIM MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR BILIMINI TASHXISLASH VA NATIJADORLIGINI TA'MINLASH

G'ofurova Mahfuza Abbosovna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muxtorova Dildoraxon Rasuljon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20267466>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichida matematika fanini samarali o'qitishda o'quvchilar bilimni tashxislashning ahamiyati yoritilgan. Tashxislash jarayoni orqali o'quvchilarning bilim darajasi, individual xususiyatlari va o'zlashtirishdagi yondashuvlar, xususan, interfaol metodlar, testlar, amaliy topshiriqlar hamda EGMA baholash dasturidan foydalanishning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, formativ baholashning o'quvchilar rivojlanish dinamikasini kuzatishdagi o'rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, muntazam va tizimli baholash o'quvchilarning matematik bilimlarini chuqur o'zlashtirishiga, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi xulosa qilingan. qiyinchiliklari aniqlanishi, shu asosda ta'limni differensial yondashuv asosida tashkil etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: baholash, tashxislash, interfaol metodlar, samarali o'qitish, muloqot, formative baholash

ДИАГНОСТИКА ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Гофурова Махфуза Аббосовна

Ферганский государственный университет,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Мухторова Дилдорахон Расулжон кизи

Магистрант Ферганского государственного университета

Аннотация: данной статье подчеркивается важность диагностики знаний учащихся в эффективном преподавании математики на уровне начального образования. В ходе диагностического процесса анализировались уровень знаний студентов, индивидуальные особенности и подходы к обучению, в частности, эффективность использования интерактивных методов, тестов, практических заданий и оценочной программы ОГМА. Также раскрывается роль формативного оценивания в отслеживании динамики развития учащихся. По результатам исследования был сделан вывод, что регулярное и систематическое оценивание служит углублению математических знаний учащихся, развитию самостоятельного мышления и навыков решения задач.

Ключевые слова: оценивание, диагностика, интерактивные методы, эффективное обучение, коммуникация, формативное оценивание.

DIAGNOSING STUDENTS' KNOWLEDGE AND ENSURING EFFECTIVENESS IN TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY EDUCATION

Gofurova Mahfuza Abbasovna

Fergana State University,

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Mukhtorova Dildorakhon Rasuljon qizi

Master's Student of Fergana State University

Abstract: This article highlights the importance of diagnosing students' knowledge in the effective teaching of mathematics at the primary education level. Through the diagnostic process, the students' knowledge level, individual characteristics, and learning approaches, in particular, the effectiveness of using interactive methods, tests, practical tasks, and the EGMA evaluation program were analyzed. Also, the role of formative assessment in monitoring the dynamics of student development is revealed. According to the results of the research, it was concluded that regular and systematic assessment serves to deepen students' mathematical knowledge, develop independent thinking and problem-solving skills.

Key words: assessment, diagnosis, interactive methods, effective teaching, communication, formative assessment.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim bosqichida matematika fanini samarali o'qitish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam ravishda aniqlab borishni talab etadi. Shu sababli o'quvchilar bilimni tashxislash ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Tashxislash orqali o'quvchilarning bilim darajasi, o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari va individual xususiyatlari aniqlanadi hamda ta'lim jarayonini to'g'ri yo'naltirish imkoniyati yaratiladi. Boshlang'ich sinflarda matematik bilimlarni tashxislash jarayoni an'anaviy nazorat ishlari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Zamonaviy yondashuvlar asosida turli interfaol metodlar, testlar, amaliy topshiriqlar hamda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, EGMA (Early Grade Mathematics Assessment) kabi baholash vositalari o'quvchilarning asosiy matematik ko'nikmalarini aniqlashda samarali xizmat qiladi. Ushbu dastur orqali o'quvchilarning sonlarni tanish, taqqoslash, arifmetik amallarni bajarish va mantiqiy fikrlash darajasi aniqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'quvchilar bilimni tashxislash natijalari asosida o'qituvchi ta'lim jarayonini differensial yondashuv asosida tashkil etadi. Ya'ni kuchli o'quvchilar bilan murakkabroq topshiriqlar ustida ishlanadi, qiyinchilikka duch kelayotgan o'quvchilarga esa qo'shimcha tushuntirishlar va mashqlar beriladi. Bu esa har bir o'quvchining individual rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijadorlikni ta'minlashda ta'lim jarayonining to'g'ri rejalashtirilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda o'quvchilarning faolligini oshirish muhim omil hisoblanadi. Darslarda muammoli vaziyatlar yaratish, o'yin texnologiyalaridan foydalanish, guruhli va juftlikda ishlash metodlarini qo'llash o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilar bilimni baholashda faqat yakuniy natijaga emas, balki o'quv jarayoniga ham e'tibor qaratish zarur. Formativ baholash usullari orqali o'quvchining rivojlanish dinamikasi kuzatilib boriladi va o'z vaqtida zarur pedagogik choralar ko'riladi. Bu esa o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga olib keladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Baholash jarayonining samaradorligi o'quvchilarga o'zlashtirish darajasini tushunishga va rivojlanish uchun zarur choralarni ko'rishga yordam beradi. Masalan, agar o'quvchi matematik formulalarni yod olishda muammo yuzaga keltirsa, u holda o'qituvchi yangi yondashuvlar va mashqlar orqali yordam bera oladi. Baholash, shuningdek, o'quvchilarga masalalarni hal qilishda ijodiy yondashuvni o'rganish, fikrlashni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Baholash usullari va metodlari. Matematika fanida o'quvchilarning bilimini baholash uchun bir qancha usullar mavjud. Har bir usul o'quvchilarning turli ko'nikmalarini o'lchashga yordam beradi. Asosiy baholash usullari quyidagilar:

Nazariy baholash: Bu usulda o'quvchilar matematik teoremlar, formulalar va boshqa nazariy materiallarni yodlab, ular ustida ishlaydi. Nazariy baholash orqali o'quvchilarning tushunish darajasi, qaysi mavzularni to'g'ri anglashganini va qanday tarzda bu bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olishlari baholanadi. Nazariy savollar o'quvchilarning matematik tilni tushunishini va mavzularni muhokama qilishdagi qobiliyatini tekshirishga yordam beradi.

Amaliy baholash: Amaliy mashg'ulotlar, masalalar yechish, grafiklarni o'qish va masalalarni amaliy tarzda yechish orqali o'quvchilarning qaysi bilimlarni amalda qo'llay olishlarini o'lchash mumkin. Amaliy baholash o'quvchilarni matematik tushunchalarni amaliy masalalarga tatbiq etishga undaydi. Bu usulning samaradorligi o'quvchilarning haqiqiy hayotdagi matematik muammolarni hal qilishdagi ko'nikmalarini o'lchashda ko'rinadi.

Testlar va viktorinalar: Testlar, viktorinalar va qisqa savollar orqali o'quvchilarning umumiy bilim darajasini o'lchash mumkin. Bu usul o'quvchilarga aniq va tez javoblar berishga imkon beradi va o'qituvchiga o'quvchilarning qaysi mavzularda qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadi. Testlar yordamida o'quvchilarning bilimini vaqtincha baholash, ular o'zlashtirgan bilimlarni tezkor tekshirish imkoniyatini yaratadi.

Loyiha ishlari: O'quvchilarning ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini baholash uchun loyihalar va ishlar berish mumkin. Bu usulda o'quvchilar matematik muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni o'rganadilar va o'z bilimlarini amaliyotda ko'rsatish imkoniga ega bo'ladilar¹.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitishda o'quvchilar bilimini muntazam tashxislab borish va natijadorlikni ta'minlash ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni kelgusida muvaffaqiyatli ta'lim olishiga mustahkam zamin yaratadi. Tadqiqotlar muayyan maktab o'quv dasturlarining ustunligini emas, balki o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqot qilish imkoniyatlarini o'rganadi. O'quvchilar maktabda o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsani to'liq o'zlashtira olmaydilar. Samarali o'rganuvchi bo'lish uchun nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ular qanday va nima uchun o'rganilishi haqida xabardor bo'lishi lozim.

¹ MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH Mallaboyeva Moxiraxon Salimjonovna

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4319-son qarori. "O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi".
2. Vygotskiy L.S. "Pedagogik psixologiya".
3. Zankov L.V. "Rivojlantiruvchi ta'lim asoslari".
4. Polat E.S. "Interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalar".
5. Tojjeva M. "Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitish metodikasi".
6. Jo'rayev R. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat".
7. Alixonov.S. Matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2011. – B 304